

ASHTARXONIYLAR DAVRI ME'MORCHILIGI

Rahmatov Murodjon A'zam o'g'li

BuxDPI tarix ta'lim yo'nalishi 1-Tar-22 guruh talabasi

Sharipov Firdavs Zarif o'g'li

BuxDPI tarix ta'lim yo'nalishi 1-Tar-22 guruh talabasi

Anotatsiya: Buxoro xonligida Ashtarxoniylar sulolasi davrida olib borilgan memorchilik ishlari rivoji, me'morchilik an'analari, memorchilikda qanday uslublardan foydalanganliklarini ko'rishimiz mumkin. Ushbu maqolamizda Abdulazizxon davrida olib borilgan qurilish ishlari haqida ham so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, Samarqand, Shayboniylar, Ashtarxoniylar, Abdulazizxon, Labi Xovuz, Nosirxon To'ra, Subhonqulixon, Nodir Devonbegi madrasasi, Registon, Yalangto'sh Bahodir,

O'rta Osiyo, ayniqsa Buxoro karvon yo'llari kesishmasida joylashgan muhim ahamiyatga ega shahar sanalganligi uchun bu shaharda xo'jalik, ma'muriy va madaniy ahamiyatga ega. Buxoroda sulolalar almashinuvi ko'p kuzatilgan bo'lishiga qaramay, shaharda qurilgan binolar o'zining bezak uslublari, foydalanish jihatlariga ko'ra o'zgarib borgan. Ayniqsa, Buxoro va Samarqand shaharlarida me'morchilik binolarida avval mavjud bo'lgan an'analardan foydalanilgan va ularga qisman o'zgartirishlar kiritib me'morchilik ishlari olib borilgan.

Buxoro Shayboniylar sulolasi taxtdan ketib, ashtarxoniylar sulolasi vakillari hokimiyat tepasiga kelgandan keyin ham o'zining poytaxt maqomi va rolini saqlab qoldi. Buxoro xonligi tasarrufiga kirgan hududlarida shaharsozlik va me'morchilik avvalgi mahobat bilan bo'lmas-da ancha rivoj topdi. Ko'plab ma'rifiy va ma'muriy xo'jalik binolari, jumladan, masjid, madrasa, karvonsaroy, bozor, xonaqoh va hammomlar barpo etildi. Faqatgina ularning tashqi qiyofasidagi ayrim o'zgarishlarni inobatga olmaganda, avvalgi davrlar an'anasi mavjud bo'lib qoldi.

Buxoro xonlik poytaxti bo'lgan davrda alohida me'morchilik maktablari tashkil etilib, nafaqat poytaxtda, balki boshqa shaharlarda ham shaharsozlik borasida katta ishlar amalga oshirilganini ko'rishimiz mumkin. Siyosiy vaziyat qanday bo'lishidan qat'iy nazar, hukmdorlar va ularning amaldorlari tarafidan qurilish ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Buning natijasi o'laroq, poytaxtda Abdulazizxon, Ubaydullaxon madrasalari, Boqi Muhammad, Ubaydullaxon masjidlari, Subhonqulixon Registonda qazdirgan quduq, Dor ash-shifo, Balxda Nodir Muhammad va Subhonqulixon madrasalari, uning atrofida chorbog'lar, Balx arkidagi imoratlar, hazrati Ali mozoridagi gumbaz hamda boshqalar fikrimizning yorqin tasdig'idir.

Ushbu davrda Buxoro me'morchilik maktabi namoyondalari tomonidan barpo etilgan inshootlarda alohida o'ziga xoslik mavjud bo'lib, ular bir-birini takrorlamaydi, ya'ni har biri alohida geometrik (aniqrog'i stereometrik) chizmalar asosida qurilgan. Me'morchilik inshootlarining interer qismlari yangi bunyod etilayotganlari uchun rivojlanish yo'lida manba bo'ldi va bu an'ana keyingi davr tarixiy yodgorliklariga ko'chib o'tdiganiga guvoh bo'lamiz.

Ashtarxoniylar sulolasining poytaxti bo'lmish Buxoro shahri me'morchiligida ushbu davrda me'morlar inshootlarning qurilishiga alohida e'tibor berishgan hamda binolarning bezak ishlarida naqshinkor usuldan foydalanganlar. Ammo siyosiy va iqtisodiy tanazzul tufayli ularda ishlatilgan bezaklarning sifati tobora pasayib borgan.

Buxoro me'morchilik maktabi Temuriylar davrida bunyod etilgan Ulug'bek madrasasi asosida shakllangan bo'lib, buning o'ziyiq mintaqada me'morchilik an'anasiga aylanadi. Bu shakldagi binolarni barpo etish usuli O'rta Osiyoning boshqa inshootlarida ham aniq va yaqqol ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, XVII asr boshlarida Shayboniy Abdullaxon II davrida erishilgan me'morchilik yutuqlardan kam foydalanilib, asosan Temuriylar davri me'moriy inshootlariga taqlid kuchaya borgan. Shu bilan birga yirik ansambllar barpo etish an'anasi qayta tiklana bordigan.

Ashtarxoniylar davriga kelib monumental qurilishlar kamaysa-da, shaharning markaziy qismlarida vujudga kelayotgan ansambllar o'ziga xosligi va betakrorligi bilan alohida ajralib turavergan. Jumladan, Labi Xovuz ansambli fikrimiz isboti. Abdulazizxon madrasasi bunyod etilishi bilan Buxoroda qo'sh madrasalar soni yana bittaga ortgan. Bundan tashqari, 1617-yilda Registon maydonida Poyandabiy masjidi barpo etiladi. 1637-yilda esa Mag'oki Ko'rpa masjidi qad ko'tarildi. Hukmdor qarorgohi sanalmish Ark qo'rg'onida joniylar hukmronligi davrida ko'plab inshootlar qad rosladi. Bu haqda Nosirxon To'raning "Tahqiqoti Arki Buxoro" kitobida etarlicha ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, Abdulazizxon davrida barpo etilgan Marosimxona binosi, Subhonqulixon davrida qad ko'targan Jome' masjidi binolari shular jumlasiga kiradi.

Buxoro shahrining Labi hovuz ansambli sharqiy qismida joylashgan Nodir Devonbegi madrasasi Buxoro xoni Imomqulixonning vaziri Nodir Devonbegi (Nodir mirzo Tog'ay ibn Sulton) tomonidan bunyod etilgan. U yuz urug'i boshliqlaridan bo'lib, XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida yashab faoliyat ko'rsatgan. Madrasa 1622-1623-yillar oralig'ida bunyod etilgan.

Me'moriy obida Sharq me'morchiligi an'alariga tayangan, naqshinkor, "Chor" uslubidaqad ko'targan. Madrasa o'z davrida ilm-ma'rifat o'chog'i bo'lgan, u yerda talabalarga diniy va dunyoviy fanlardan saboq berilgan.

Me'moriy obidaning o'ziga xos tomonlari haqida gapiradigan bo'lsak, inshoot dastlab karvonsaroy sifatida qurilgan, xonning qarori bilan madrasa holiga

keltirilgan. Unda madrasalarga xos ayvon, masjid va katta darsxona yo‘q. Madrasa fasadining bezatilishi, fantastik qush tasvirining tushirilishi kabi jilolar bilan e‘tiborlidir. Shu tomonlari bilan Buxorodagi boshqa me‘moriy obidalardan ajralib turgan.

XVII asrda Samarqand Registon ansamblining hozirgi qiyofasi shakllantirildi. Samarqand hokimi Yalangto‘sh Bahodir 1619-1635-yillarda Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi qarshisida, vayron etilgan xonaqoh o‘rnida Sherdor madrasasini, 1646-1659-yillarda Tillakori masjid-madrasasini barpo ettiradi. Samarqand Registon ansambli o‘zining hashamati rang-barang koshinkor bezaklari, naqshinkor peshtoqlari, ulkan gumbazlari bilan O‘rta Osiyo me‘morchiligining noyob tarixiy yodgorligi sanaladi.

XVII asrning 60-yillaridan Buxoro siyosiy kurashlar maydoniga aylanib boraverishi natijasida uning madaniy va iqtisodiy hayotida biroz pasaygandek bo‘ldi. O‘sha davrda Eronga tashrif buyurgan polyak elchisi kuzatuvlariga qaraganda, Abdulazizxon “Turli fan sohalarida, ayniqsa, matematika sohasida yetuk olim odam” bo‘lgan. U forslarga tez-tez o‘z kuchini his qilish imkoniyatini berardi. Shu o‘rinda yana bir ma‘lumot, qolgan ashtarxoniy hukmdorlar singari Abdulazizxon ham ijod kishisi sanalgan. Jumladan, u “Aziziy” taxallusi bilan bir qator she‘rlar bitgan. Shuningdek, u nasx va nasta‘liq xatida yozishni, maktub va insho mashqini zamonasining eng sara allomalaridan o‘rgangan edi. Keyinchalik oliy hukmdor darajasiga etishganda, Hindiston, Eron va Runga xoh turkiy, xoh forsiyda bo‘lsin, noma bitilarkan, ularni o‘zi tahrir qilib, yoqmasa boshqatdan o‘zi yozar ekan.

Abdulazizxon hukmronligi davrida me‘morchilik sohasiga alohida e‘tibor qaratilib, Buxoroda o‘z nomi bilan va Volidai Abdulazizxon, Samarqandda Tillakori madrsalarini barpo ettiradi. Ular orasida tashqi peshtoqi muqarnasi betakror sanaladigani bu Buxoro shahridagi Abdulazizxon madrasasi sanaladi. O‘rta osiyo mem‘orchiligining XVII asrdagi g‘oyat ulkan me‘morchilik namunasi haqida Pugachenkova hamda Rempelning “Ocherki iskusstva Sredney Azii” kitobida etarlicha ma‘lumot berilganiga guvoh bo‘lamiz. Shuningdek, hukmdor o‘z davrida qo‘lyozmalar kutubxonasini tashkil etadi. Abdulazizxon tomonidan barpo etilgan Mirakon, Bozori Go‘sfand, Xiyobon madrasalarining ayrimlari bizning davrimizgacha etib kelgan. O‘rta Osiyo me‘morchiligining noyob namunasi sanalgan Abdulazizxon madrasasi tashqi intereri o‘ta nozik did bilan ishlanganligi bilan alohida boshqa inshootlardan ajralib turadi. Unda bir-biriga yaqin bo‘lgan ranglar uyg‘unligi muqarnas qismida ajoyib manzara kasb etib turadi. Madrasada ishlatilgan hamma bezaklar – yangi va qadimgi usullarning uyg‘unligi qo‘llanilishining ensiklopediyasi deb hisoblash mumkin. Sababi ajoyib va husunkor ushbu madrasaning kitobalari uch xil usulda bezatilgan.

Shunday qilib Ashtarxoniy davrida Buxoro xonligida katta qurilish va obodonchilik ishlari olib borilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского, вводная статья и примечания: Н.Норкулов. – Т.: 2009
2. Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий /Форс–тожик тилидан Нарзулла Йўлдошев таржимаси. - Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2003.
3. Бухоро Шарқ дурдонаси. Муаллифлар жамоаси.-Тошкент: Шарқ 1997.
4. Ўзбекистон тарихий обидаларидаги битиклар. Бухоро/ Муаллифлар жамоаси. -Тошкент: Uzbekistan Today, 2016.
5. Саййид Мансур Олимий. Бухоро –Туркистон бешиги / Сўзбоши, форс тилидан таржима ва айрим изоҳлар муаллифи Н.Тўраев. - Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2004.
6. U.Qoraboyev , G'.Soatov –“O'zbekiston madaniyati”-2011-yil.
7. Azamat Ziyov –“O'zbek davlatchiligi tarixi”-2000-yil.
8. Q.Usmonov, U.Jo'rayev, N.Norqulov -“O'zbekiston tarixi”-2014-yil.
9. U.Qoraboyev , G'.Soatov –“O'zbekiston madaniyati”-2011-yil.
10. Kenjayev S.N. Amir Temur's Ambassadorial Activity in Diplomatic Relations with China (Min State) (In the Case of Fu An) // ISSN-L: 2544-980X.- Miasto Przewoźności Kielce, 2022.112-114 P. (Impact Factor: 9.2)
11. Кенжаев С.Н. Amir Temurning Xitoy bilan munosabatlari va Tayzi o'g'lon faoliyati// Science and education scientific journal, ISSN 2181-0842 VOLUME 3, ISSUE 5. ISSN 2181-0842.- Т.:1493-1497 b. (Impact Factor: 4.2)
12. Kenjayev S.N. Amir Temur davlati va Xitoy(Min) imperiyasi o'rtasidagi savdo aloqalari tarixidan // “O'tmishga nazar” 4 jild, 10-son, Doi Jurnal 10.26739/2181-9599. – TOSHKENT 2021.- Б.67-74. .(07.00.00; №10)
13. Кенжаев С.Н. Амир Темур ва Хитой давлати ўртасидаги муносабатлар ўзаро тўқнашув хавфининг вужудга келиши// ЎЗМУ Хабарлари, 1/9. – Тошкент, 2022. -Б.18-21. .(07.00.00; №1)
14. Кенжаев С.Н. Amir Temurning Xitoy(Min davlati) harbiy yurishga tayyorgarlik jarayonlari va uni keltirib chiqaruvchi omillar // Sohibqiron yulduzi. Ижтимоий-тарихий,илмий ва оммабоп журнал.–Қарши, 2022. -№3. – Б.25-30 б.(07.00.00; №49)
15. Кенжаев С.Н. Trade and ekonomik relations between Amir Temur's state and the Min dynasty// International symposium of young scholars. –USA, 2021. -P 480-481. 7. Кенжаев С.Н. Faktors of Amir Temur's military march to china and the international political situation // Euro Asian Conference on Analytical Research, ISBN: 978-1-913482-99-2.-Germaniya, 2021.-P. 115-117.
16. Кенжаев С. Н. Important issues of important of improving the immunity of security, international harmony, religious tolerance in the state of Amir Temur // Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини кучайтиришнинг долзарб масалалари. – Бухоро, 2022.-Б 238-241.

17. Kenjayev S. The importance of the northern and southern network of the great silk road in Amir Temur's relations with China. «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy onlayn konferensiya, (2022), № 28.-P 207–209. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7456181>
18. Кенжаев С. Н. Амир Темур ва Хитой муносабатларида савдогарлар табақасининг ижтимоий ҳаётдаги ўрни // «Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya» nomli ilmiy-amaliy konferensiya. –Toshkent, 2022. № 7.-Б.58-
19. Кенжаев С.Н. Хитой сари юришга тайёргарлик жараёнлари ёхуд Амир Темур ҳаётининг сўнги кунлари. // “Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Buxoro, 2022. –Б. 52-57.
20. Кенжаев С.Н. Амир Темур ва Хитой дипломатик муносабатларининг объектив ва субъектив омиллари. // «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya.Тошкент, 2022.-Б 18-22.
21. .Кенжаев С.Н. Амир Темурнинг Хитой юриши вақтида жанубий ва шимолий сарҳадлар хавфсизлиги масалалари. // «Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya» nomli ilmiy-amaliy konferensiya. –Toshkent, 2022. -Б.131-
22. . Амир Темурнинг Хитой билан муносабатларида Шимолий савдо йўлининг аҳамияти/ International cjnferenct dedicated to the role and importanct of innovative education in the 21st centyre 2022/7.-Б 197-199.
23. Kenjayev S.N. Amir Temurning Xitoy bilan munosabatlari tarixi (XIV asrning 70 yillari-XV asr boshlari) // Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) unvonini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. –Buxoro: 2023.-Б.144.
24. Kenjayev S.N Amir Temurning Xitoy bilan munosabatlari tarixi(XIV-asrning 70-yillar XV-asr boshlari) [Matn] : monografiya /Sardor Nurmurod o'g'li Kenjayev. – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy ,2023. –136.
25. 17.Kenjayevev S.N. Amir Temur va Temuriylar sulolasining Xitoy bilan munosabatlarida choy va ot savdosi.//- “Uzbekistan-China: development of historical, cultural, scientific and economic relations”.-Т.: VOLUME 3 | SPECIAL ISSUE 21 ISSN 2181-1784 SJIF 2023: 6.131 | ASI Factor = 1.7